

## O'ZBEKISTONDA BOLALAR XORINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIGA BIR NAZAR

**Hasanova B.M.**

*Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi*

*Xor dirijyorligi bo'limi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy xor ijodiyoti va uning tavsifi bo'yicha metodik jihatdan izlanishlar olib borilgan. Jumladan bolalar xorini tashkil qilishdagi qator muammolar va yosh xususiyatlari o'rganib chiqilgan;

**Kalit so'zlar:** Xor ijrochiligi, Partiyalar, Diskant, alt, ovoz apparati, mutatsiya, tembr xor turlari;

Xor ijrochiligi hozirgi kunda keng tarqalgan asl xalq san'ati turlaridan biridir. Jamoa bo'lib ajro etish, odamlarga chuqur, go'zal (estetik) zavq uygotibgina qolmay, balki, ularni jipslashtiradi. Jamoa bo'lib birlashishga olib keladi hamda ma'naviy saviyasini, badiiy didini oshirishga yordam beradi. Bu so'z va musiqadagi g'oya bir odam orqali emas, balki, bir gurux jamoa tomonidan ifoda etilishidir. Xor sana'ti insonning eng yaxshi xis-tuygularini uyg'otib, hayajonlashtirish, qiziqtirish xususiyatiga ega. Shu sababdan xor ishtirokchilari bilan bir qatorda tinglovchilarning ham badiiy-g'oyaviy tarbiyalanishidagi o'rni juda katta va muhimdir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda musiqa san'atiga bo'lgan e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2-fevraldagi PQ-№112-sonli “Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida”gi qarori. O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 02.11.2022 yildagi 633-sonli “Madaniyat va san'at muassasalarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash va ularni davlat tomonidan tizimli qo'llab quvvatlash to'g'risida”gi qarori va shunga o'xshash musiqa san'atini rivojlantirish maqsadida bir qator qarorlar qabulqilingani buning yaqqol tasdig'idir.

O'tgan asrdan farqli ravishda xor asarlariga o'zgacha ruhiyat va yangicha jilo bilan xor ijrochiligi repertuarlarini yanada boyitmoq zarur. Zero, zamon kundan kunga rivojlanmoqda shu bilan birga har bir soha vakili o'z ustida ishlab dunyoga yangicha nigoh bilan qaramoqda shu qatorda xor san'ati vakillari ham o'z sohasi rivoji uchun harakat qilmog'i zarur.

Kattalar xori bilan bir qatorda bolalar xori, bolalar musiqa ijodiyoti faoliyatlari ham kundan kunga jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

Ushbu uslubi ma'ruzada bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari, ixtisoslashtirilgan san'at maktabtblari xor jamoalari, respublikada faoliyat olib borayotgan xor jamoalari, bir qancha bolalar qo'shiqchi guruhlariga xor san'atining asl

mohiyati va jamiyat hayotidagi oʻrni, bolalar xor asarlarining amaliy va nazariy tahlil metodidan foydalanish tavsiya etilgan. Mazkur uslub zamonaviy texnologiyalar yordamida va interfaol usullar orqali tashkillansa yanada ijobiy natija berishi ham belgilab oʻtilgan.

### **Bolalar xoriga tavsif**

Bolalar xori diskantlar (saprano) va al't partiyalaridan iborat. Ular yoshlarga qarab uch guruhga bo'linadi.

1. Maktab yoshdagi kichik guruh (7-10 yosh)
2. Maktab yoshdagi o'rta guruh (11-13 yosh)
3. Maktab yoshdagi katta yoki o'smirlar xori (14-18 yosh)

1. Kichik xor 2. O'rta xor 3. Katta xor. O'smirlar xori (ikki ovozli) faqat katta yoshdagi o'smir bolalardan tashkil topadi. Maktab yoshdagi katta gruppada aralash xorni (saprano, al't va o'smir bolalar) tashkil etishi mumkin.

Xor turlari tuzilishi sifatiga qarab aniqlanadi.

Turiga ko'ra xor bir xil yoki aralash tuzilishda bo'lishi mumkin. Bir xil tuzilishdagi xorlarga alohida erkaklar xori, ayollar xori, bolalar xori kiradi.

Aralash xorga bolalar bilan ayollar xori kiradi va ayol va erkaklardan ibrat xorlar kiradi. To'rt ovozli aralash turlaridan biri o'gil bolalar va o'smirlardan tashkil topgan xordir.

### **Ovoz apparatining tuzilishi va bolalar ovozi xarakteristikasi**

Insonning ovoz apparati o'ziga xos murakkab “musiqa asbobi” bo'lib, u o'zining rang-barang tembr boyligi, nihoyatda nozik musiqa ifodalash xususiyatlariga egaligi bilan hamma musiqa asboblaridan ustun turadi. Chunki kishi ovozi kuy va so'zni organik payvandlash natijasida musiqiy nutqning asl ma'nosini ochib beradi. Bu borada inson ovozigacha teng keladigan birorta ham musiqa asbobi yo'q. Shuning uchun ham inson ovozi ko'pincha “gapiruvchi musiqa asbobi” deb ham yuritiladi.

Ovoz apparati tomoq, hiqqildoq, xalqum, nafas ravog'i, ovoz pardalari (bog'lamlari), rezonatorlar va xar xil mushaklardan iborat.

Hiqqildoq - ovoz paydo qilish apparati vazifasini bajaradi. Hiqqildoq uzuksimon, qalqonsimon va ikkita shoxsimon (uch burchak) tog'aylardan iborat bo'ladi. Ular muayyan muskullar yordamida oldinga va orqaga xarakat qiladi. Qalqonsimon tog'ayning pastki, uzuksimon tog'ayning xalqa qismi ustidagi pardalar elastik tolalardan tuzilgan. Tomoqning xalqum devorlari tomonidan nafas (burundan keyingi) yo'li boshlanadi va ovoz ravog'iga taqaladi. Ovoz ravog'ining xar ikkala chetida juda nozik tola-to'qimalardan iborat ovoz pardalari joylashgan.

Odam ovozi juft va toq hiqqildoq tog'aylari pardalarining muskullari yordamida bir-biri bilan birikishidan xosil bo'ladi.

Nafas orqali chiqayotgan xavo xiqqildoqdagi tog'aylar orasida tortilgan ovoz pardalariga urilib tebratadi va ovoz chiqaradi.

1. Hiqildoqning ustki qismi.

2. Ovoz pardalarining chetlari

Tovushning baland-pastligi, yoʻgʻon - ingichkaligi hiqildoq. boʻshligining katta - kichikligiga, pardalarning tarangligiga, ularning uzunligi va qalinligiga, til, xalqum-xiqqildok, muskullarining qisqarishiga bogʻlikdir. Ovoz pardalari lotincha “lig vocale” deyiladi. Bu pardalar yuqori va pastda joylashgan boʻlib, yuqoridagisi soxta, pastdagisi esa chin ovoz pardasi deyiladi.

Ayollarning hiqildogʻi erkaklarnikiga qaraganda yuqoriroqda, bolalarniki esa undan xam yuqoriroqda joylashgan boʻladi. Keksalarning hiqildogʻi esa oʻrta yoshli kishilarga qaraganda pastrokda joylashgan. Shuning uchun xam ovozlar past-baland boʻladi.

Shuni xam aytish kerakki, kishi erkin nafas olib, nafas chiqarayotganda ovoz chiqmaydi, chunki bunday vaqtda ovoz pavogʻi erkin xolda boʻlib, ovoz pardalari taranglashmagan, deyarli xarakatda boʻlmaydi. Ovoz ravogʻining toraya boshlashi bilan tovush chiqib boshlaydi.

Bolalar ovozi xaqida gapiradigan boʻlsak bolalar ovozi koʻkrak, aralash (mikst) va bosh (faltset) registrlaridan iborat. Bolalar ovozi uchun bosh qismining baland rezonanslanishi xosdir. Bolalar ovoz apparatining tuzilish va rivojlanishi xususiyatlariga qarab har bir yosh guruxi individual registrdagi ovoz tuzilishiga ega. Kichik gurux bolalari (7 dan 10 yoshgacha) ovozining diapazoni kichik boʻlib, engil faltset (bosh registrdagi) sadosi bilan ajralib turadi. Oʻrta yoshdagi bolalar ovozlarida (11- 13 yosh), ayniqsa, oʻgʻil bolalarda koʻkrak registrdagi tovush elementlari paydo boʻlib diapazon kengayadi. Bu yoshdagi bolalar ovozining diapazonida uchala registr (bosh, aralash, koʻkrak) ajralib tursa-da, kuylash vaktida asosan mikst (aralash) registri tovushlari ishlatiladi. Katta gruppada yoshidagi bolalar ovozida (14—16 yoshlarda) tembr aniqligi, voyaga etgan ovoz elementlari paydo boʻladi. Lekin amalda mikst (aralash) registri tovushlari saqlanadi.

Registrlar chegarasida “oʻtkinchi tovushlar” (oʻtkinchi notalar) boʻlib, ularda ovoz apparatining qayta sozlanishi sodir boʻladi. Shu sababdan kuylash vaqtida tovush xarakatining ravonligi buzilib, ovoz kuchsiz va noturgʻun eshitiladi.

Har bir tipdagi ovoz oʻzining registr chegaralariga ega. Oʻz oʻrnida bolalar ovozi diskant (yoki soprano) va altga boʻlinadi.

Diskant (soprano)—bolalarning yuqori ovozi boʻlib, uning qamrovi birinchi oktava “do”dan, ikkinchi oktava “fa-sol”gacha (baʼzida undan xam yuqori) koʻtariladi. Diskant engil, oʻzgaruvchan, yumshoq (bosh registrda) yangraydigan ovoz boʻlgani uchun har xil kuy va ohanglarni juda taʼsirchan ijro eta oladi. Alt — bolalarning pastki ovozi. U kuchli va birmuncha yoʻgʻon jarangdor tembrli boʻlishi bilan birga, baʼzi xollarda mayin xarakterga ega ham boʻladi. Alt tovushining diapazoni kichik oktava “sol-lya” dan II- oktava “re-mi” (baʼzida - “fa”)gacha boʻladi.

Shunga e'tibor qilish kerakki, alt ovozinig juda xam yuqori pardalari qo'llanilsa, bolalar zo'riqib kuylaydi, shuningdek, juda past pardalar ishlatilsa, ovoz kuchsiz bo'lib chiqadi. Shuning uchun juda yukori tessiturada yozilgan asarlar bolalar ijrosi uchun tavsiya etilmaydi. Bunday paytlarda asarni bolalar ovozinig diapazoniga qarab qayta moslashtirish (aranjirovka qilish) maqsadga muvofikdir. Alt ovozi diskantlarga nisbatan sustroq bo'ladi. Ko'p xollarda xorda bu ovozga ikkinchi tovush topshirilishiga qaramay, u ba'zida asosiy kuyni xam olib boradi, unda bu ovozning ijrosi juda ravon va ifodali jaranglaydi

Shu o'rinda ovoz gigenasi xaqida xam gapirib o'tsak. Ovoz tabiatning qimmatbaxo in'omi bo'lib, undan har bir ijrochi extiyotkorlik va aql bilan foydalanishni talab qiladi. Qattiq nutq, baqirib kuylash, noqulay (past va yuqori) tessiturani xaddan tashkari ishlatish, ovoz apparatining kasalligida kuylash — bularning xammasi ovoz pardalarini charchashiga va kasalga chalinishiga olib kelishi mumkin. Shu sababdan, qo'shiqchilar o'z ovozlari asrashlari, uni xar xil kasalliklardan saqlashlari zarur.

Mashg'ulotni dam olish bilan oqilona almashtirib turish o'quvchilik rejimining asosiy qoidasidir. Shuningdek, sovuq havoda kuylash, sovuq ichimliklar ichish esa, ovoz apparatiga salbiy ta'sir qilishini esdan chiqarmaslik kerak. Vakti-vaktida vrach — foniatr (“Foniatrya”- ovoz apparati kasalligini o'rganadi) ko'rigidai o'tib turish ovoz apparati kasalliklarini oldini olishda muxim axamiyatga ega. Musiqa o'qituvchilari bolalarning mutatsiya vaqtidagi qo'shiq aytish va ovoz apparati xususiyatlarini bilishi kerak bo'ladi.

Mutatsiya haqida tushuncha bersak. Mutatsiya lotincha “mutatio”-o'zgarish demakdir. Ya'ni bolalar voyaga etayotgan davrdagi ovoz o'zgarishi (ovozning rasta bo'lishi) dir. Bolalar bilan ishlaganda, ularning yoshiga qarab, fiziologik va psixologik xususiyatlarini xisobga olish zarur. Mutatsiya davri odatda o'g'il va qiz bolalarning organizmida 12-13 yoshida boshlanib, 16-17 yoshtgacha ba'zida undan xam kechroq katta o'zgarishlar bo'la boshlaydi. Yurak kengaya boshlaydi, muskullar mustaxkamlasha boradi, ovoz tonida (ayniqsa, o'g'il bolalarda) o'zgarishlar bo'ladi. O'g'il bolalarda xalqum tez o'sadi, ovoz pardalari uzunlashadi, ovoz pasayib kichik oktava tovushlariga o'ta boshlaydi va xokazo. Qiz bolalarda mutatsiya osayishta, asoratsiz o'tadi. Lekin shunga qaramay, qizlarning ovozi hamehtiyot qilish zarur. Qo'shiqchilik rejimiga rioya qilinsa, mutatsiya davri bir qanchay engil o'tishiga yordam beradi.

Bunday davrda bolalar ovozi ortiqcha kuylashga kuchi yetmaydi va diqqat hamda ehtiyotkorlik bilan munosibatda bo'lishni talab qiladi.

Jinsiy tiklanish (rasta bo'lish) davri o'g'il bolalarda qiz bolalarga qaraganda 1—2 yil keyin boshlanadi. Bu davr mutatsiya davri deb ham ataladi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi sinflarda o'g'il bolalar ovozi o'zining kuchi, tembri va diapazoni bilan qizlar

ovozidan deyarli farq qilmaydi. Lekin 12—15 yoshdan to 15—16 yoshgacha o'g'il bolalar ovozida keskin o'zgarishlar bo'ladi. Qiz bolalar ovozida xam mana shu yoshlarda katta o'zgarishlar bo'lib, mutatsiya davri o'tadi. Lekin qiz bolalarda mutatsiya davri o'g'il bolalarga nisbatan ancha engil o'tadi. Ma'lumki, mutatsiya davri odatdagidek ikki davrga bo'linadi:

Birinchi davr -mutatsiya alomatlarining paydo bo'la boshlashi: hiqqildoq va ovoz pardalarining shamollashi va qizarishi.

Ikkinchi davr-ovoz chiqarish a'zolarining o'zgarishi natijasida ovozning pasayishi va ko'pincha ovozda pastki (ko'krak registri) tovushlarining paydo bo'lishi. Bu davrning oxirlarida asta-sekin o'g'il bolalarda erkakcha ovoz, qizlarda esa zaifona ovoz takomillasha boradi.

Xususan, qizlar ovozi mutatsiya davrida takomillashib, diapazoni kengayadi. Albatta, ovoz xarakterining o'zgarishi, avvalo, bolaning xar jixatdan balog'atga etishiga bog'liq. Ba'zi bolalarda o'smirlik davri uzoq davom etishi mumkin.

Ayrim pedagoglar mutatsiya davrida bolalarga qo'shiq aytirmaslikni maslaxlat bersalar, ayrimlari bolalarga shu davrda xam qo'shiqchilik tarbiyasini berish maqsadga muvofiq deb ta'kidlaydilar. O'qituvchi bola ovozi apparatining holatidan xar doim xabardor bo'lib turishi lozim. Ovoz tarbiyasi borasida esa o'qituvchiga xar bir bolaga nisbatan individual yo'l tutish tavsiya qilinadi.

Mutatsiya davrida bola ovozida juda xam keskin o'zgarishlar bo'lsa, unga vaqtincha qo'shiq aytirmaslik lozim. Zero ovozda o'zgarishlar kamroq bo'lsa, uni sekin va past ovozlarda kuylatish mumkin.

Qo'shiq tanlashda xam bu masala nazarda tutilishi, ya'ni V—VII sinf bolalariga mos, qulay tessituradagi va diapazoni uncha katta bo'lmagan jo'shqin, marsh xamda yumshoq, mungli, lirik xarakterdagi qo'shiqlar tanlash tavsiya qilinadi.

Shunday qilib, mutatsiya davrida extiyotlik bilan qo'shiq aytirish xam bolalar ovozini saqlash yo'llaridan biri xisoblanadi.

Qo'shiq aytish ko'nikmalarini o'stirishning asosini undagi vokal ishlari tashkil kiladi. Vokal ishlari qo'shiqchining muvaffaqiyatli faoliyati uchun zamin yaratadi. Undagi ishlarning sifat darajasi o'qituvchining malakasiga, qobiliyati va pedagoglik mahoratiga bog'liq. Qo'shiq kuylash jarayonida olib boriladigan ishlarining maqsadi, o'quvchilarda to'g'ri kuylash malakalarini o'stirishdir. Qo'shiq kuylash ishlariga:

-ijroning muxim elementlari ustida ishlash (xamoxanglikka, yaxshi sozga, so'z talaffuziga, badiiy ifoda vositalariga erishish);

-to'g'ri nafas olish, aniq, yaxshi tovush barpo kilish va uni shakllantirish;

-sinf a'zolarini bir xil kuylash malakalariga ega qilish kabilar kiradi.

Ijrochining muxim elementlarini barpo qilish uning ijro texnikasiga bog'lik., albatta. Vokal texnikasiga, asosan, nafas, tovush xosil qilish, uni cho'zish, dinamika, intonatsiya va diktsiya malakalari kiradi.

Ijrochilar yaxshi vokal texnikaga ega bo'lmasa, uning ijrosida na uygunlik (ansambl), na tinik soz, na aniq talaffuz va badiiy ifoda bo'ladi, Shuning uchun xar doim qo'shiq aytish ko'nikmalarini o'stirish uning texnikasini rivojlantirish va takomillashtirib borish zarur. Chunki yaxshi ansamblga, sozga, dinamik mustaxkamlikka, diktsiyaga va tembr bo'yoqlariga erishishda vokal “fundament” mustaxkam bo'lishi kerak. Qo'shiq aytish ko'nikmalarini o'stirishda vokal shunchalik muhim ahamiyatga ega ekan, o'qituvchi vokal pedagogikasini yaxshi bilishi va o'zi yaxshi ijro eta olishi talab qilinadi. O'quvchilar esa ovoz gigienasini yaxshi bilishi va ovozlarni ehtiyoj qilib yurishlari shart. Ovozni shamollatish, ovoz pardalarini toliqtirish, qattiq qichqirish hollari qo'shiq aytish ko'nikmalarini o'stirish ishlari saviyasini pasaytiradi.

Raxbar har doim vokal tarbiyasi ustida ish olib borishi, o'quvchilarning ish faoliyatini shu tarbiya asosida boshqarishi va qo'shiqning chiroyli, ifodali jarangiga erishmogi kerak.

### **Xulosa**

Keyingi yillarda turli bolalar jamoalarininng ko'payib ketishi hammamizni quvontiradi, albatta. Sababi, ular shahar, tuman “Bolalar ijodiyoti” markazlarida ko'plab tashkilotlarning beg'araz homiyligi tufayli rivojlanib, san'at sirlarini mukammal o'rganib kelmoqda. Bunday jamoalardan ayrimlari “Mustaqillik”, “Navro'z” va boshqa davlat tadbirlarida, katta sahnalarda o'z mahoratini namoyish qilib, san'atimizning porloq kelajagini namoyon qilib turganligi quvonchli holdir.

“Yagonasan, muqaddas Vatan”, “Yangi avlod”, “San'at g'unchalari” va boshqa ko'plab tanlovlarda bolalar jamoalari o'zlarining rang-barang dasturlari bilan ishtirok etib barchamizni quvontirmoqda. “Qachon xalqimiz birgalikda kuylaydi” deb kuyinib xitob qilganlari hali-hamon esimizda. Xalqimizda bir ibora bor, “Agar maktab kuylasabutun Vatan kuylaydi”. Modomiki shunday ekan bir bu iborani maktablarimizda amalga oshirsak ayni muddao bo'lar edi. Bu o'rinda biz rivojlangan davlatlar tajribalaridan andoza olgan holda o'zimizning milliy qo'shiq bayramlarimizni, turli Xalqaro bolalar festivallarini tashkillashtirsak xayrli ish bo'lar edi. Ehtimol bu bayramlar asta-sekin rivojlanib, “O'zbekiston bolalar kuni” Xalqaro festivaliga aylanib ketsa, ajab emas. Bu bayramlarda farzandlarimiz Ona Vatanni, go'zal tabiatimizni madh etuvchi yangroq qo'shiqlari bilan birga ota-onaga, ustozga bo'lgan ehtirom, do'stlik-inoqlik va albatta baxtli bolalik qo'shiqlarini baralla kuylashlarini orzu qilamiz.

Yangi tahrirdagi “Ta'lim to'g'risidagi qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” ta'lim sohasida amalga oshiriladigan ishlarning maqsadi, vazifalari va yo'nalishlarini belgilab berdi. Bu vazifalarni amalga oshirish, avvalo tayyorlanayotgan pedagog kadrlarning bilimi va kasb mahoratining qay darajadiligiga ko'p jihatdan

bog‘liq. O‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni nechog‘lik aql, bilim va kasb mahorati bilan bajarishi jamiyat kelajagini ta‘minlovchi muhim omildir.

Uslubiy ma‘ruzani yozish jarayonida shu narsalar ma‘lum bo‘ldiki, musiqiy ta‘lim yo‘nalishida xor bilan ishlash va xor asarlarini rivojlantirish jarayonida o‘ziga xos pedagogik yondashuvlar nihoyatda muhim sanaladi:

- fanni o‘qitishning shakli, o‘ziga xosligi, bo‘lg‘usi o‘qituvchining kasbiy faoliyatida tutgan o‘rni va ahamiyati;

- fanni o‘qitishning metodologik asoslari va metodik tizimining yaratilganligi;

- o‘quv – uslubiy ta‘limotning kerakli darajada mavjudligi;

- pedagogik shart – sharoitlarni yaratilganligi;

- ta‘limga texnologik yondashuvning ma‘lum meyorlar asosida tizimlashtirilganligi;

- ta‘lim oluvchilarning musiqiy bilim, tushuncha, qiziqish, qobiliyat va iqtidorlari bo‘yicha ma‘lum zahiralarga egaligi;

Demak, bolalar xor san‘ati asosida bo‘lajak xor rahbarlarining kasbiy faoliyatga tayyorlash ta‘limning asosiy shakllantiruvchi bosqichlaridagi o‘qitish ishlarining mazmun va mohiyatini belgilaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1976. 2-qism.
2. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1977. 3-qism.
3. Xor dirijyorligi xrestomatiyasi. - T.: O‘qituvchi, 1985.
4. Q.Mamirov. “Qo‘shiqlar, xor asarlari”. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.
5. Xrestomaniya po dirijirovaniyu. - M.Muzika, 1972.